

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA DARSNI SAMARALI TASHKIL QILISH

Qodirova Oydinoy Neymatjanovna

Andijon tumi 24-umumta'lim maktabi texnologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Umumta'lim maktablarida texnologiya fanini o'qitishni tashkil qilishda zamonaviy talablardan kelib chiqayotganligi, Mehnat an'analariga ommaviylik xosdir, ular hayotiy bo'lib, xalq ommasi kundalik ijodida mavjudligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *texnologiya, zamonaviy talablar, o'qitish, o'rgatish, harakat, texnika, texnologiya, fan, ta'limot.*

Texnologiya – yunoncha ikki so'zdan – “texnos” (techne) – mahorat, san'at va “logos” (logos) – fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topgan. Texnologiya ish usullarini, uning rejimini, harakatlar ketma-ketligini o'z ichiga oladi. Mehnat jarayonida texnika va texnologiyalarning roli mahsulot tayyorlashning eng zamonaviy va samarali usullarini yaratishdan iborat. Fan va texnika rivojlanib borgan sari texnika va texnologiyalarning o'rnini va roli oshishi natijasida texnologiyalar ham yangilanib va o'zgarib bormoqda. Bu esa inson qo'l mehnatini yengillashtirishga, mehnat unumdorligini oshirishga, sifatli mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qilmoqda.

O'quvchilar mehnat faoliyatining bu ko'rinishlarini tashkil etishda o'quvchilarning yoshi, shaxsiy, ruhiy, fiziologik xususiyatlari, pedagogik va metodik mezonlar, mehnat qonunchiligi, sanitariya-gigiyena va mehnat xavfsizligi talablari, milliy an'analar va urf-odatlar, iqtisodiy sharoitlar va qonuniyatlar hisobga olinishi lozim.

Texnologiya fani o'qituvchilariga qo'yiladigan kasbiy talablar ularning kasbiy tayyorgarligi ko'nikma va malakalari darajasi, ish faoliyati sharoitlari hamda mazmuni kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Umumta'lim maktablarida texnologiya fanini o'qitishni tashkil qilishda zamonaviy talablardan kelib chiqib, ta'lim standartini ishlab chiqish, o'quv reja va dasturlarini, zarur darsliklarni yaratish, tarqatma va ko'rgazmali materiallar tuzish, texnologiyaning ilmiy-uslubiy asosini yaratish jarayoni, avvalo, yagona tizimga va tartibga solinishi, boshqarilishi hamda eng muhimi, o'quv-tarbiya tizimini mazmunan va shakllan takomillashtirilishi shu sohada keng ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish ishlarini jadallashtirishi ilmiy-metodik ta'minotning asosini tashkil etadi. Ilmiy-metodik ta'minot maktab uslubiy kengashlari, tuman, viloyat xalq ta'limi bo'limlari, tegishli vazirliklardagi ilmiy-uslubiy kengashlar faoliyatlari, ilmiy-tadqiqot

institutlaridagi, oliy o'quv yurtlari kafedralarida olib borilayotgan mazkur yo'nalishlardagi ilmiy izlanishlar, tadqiqot-tajriba ishlari bilan uyg'unlashtirilmog'i va muvofiqlashtirilmog'i lozim.

Texnologiya fanini amalga oshirishning o'ziga xos asosiy shartlaridan biri – uning barcha bo'g'inlaridagi o'quv jarayonini moddiy-texnikaviy, uslubiy-didaktik jihatdan hozirgi zamon talablari asosida majmuaviy ta'minlanishidir.

Texnologiya fanining moddiy-texnik ta'minoti; dastgohlar, maxsus binolar, yo'riqnomalar, huquqiy va ma'muriy hujjatlar majmualari, texnologik va xavfsizlik xaritalari, turli materiallar, asbob-uskunalar, moslamalar, energiya manbalari, ehtiyot qismlar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bu ta'minotni amalga oshirishda davlat tashkilotlari, xususiy, kichik, qo'shma korxonalar va mehnat jamoalari, ota-onalar hamda keng jamoatchilik yordami jalb qilinsa, Texnologiya fanini o'qitishning samaradorligi ortadi.

Texnologiya o'quv fani o'quvchilarda texnik ijodkorlikni, qobiliyatni, tafakkurni rivojlantirish, dars jarayonida tabiiy, metall va metallmas materiallarga zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida ishlov berish usullarini o'rgatish, milliy xalq hunarmandchiligi asoslari, energiyani ishlab chiqarish va undan foydalanish, kasb-hunarga yo'llash bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishni ko'zda tutadi. O'quv fanini o'qitish orqali o'quvchilarda texnik ijodkorlik qobiliyati, kreativ ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Texnologiya fanini o'qitishni yangi bosqichga ko'tarish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida:

- kompozit materiallarni yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarish orqali mahsulot turlarini ko'paytirish, eksport va import hajmini oshirish;
- iqlim o'zgarishini inobatga olgan holda o'rta xo'jaliklar va agroklasterni rivojlantirish orqali yuqori texnologiyali qishloq xo'jaligini tashkil etish;
- brend mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan to'qimachilik sanoati;
- qayta tiklanadigan energetika ulushi yuqori energetik konsorsium;
- yangi texnologiyalarga asoslangan eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish;
- yuqori texnologiyali polimer mahsulotlarini, kosmetika va dori-darmonlarni ishlab chiqarish va eksport qilish sohalarini rivojlantirish;
- tadbirkorlik va kasanachilikni yangi bosqichga olib chiqishga imkoniyat yaratish;

- texnologiya ta'limini modernizatsiyalash, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish orqali o'quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish, mehnat bozorida zarur bo'ladigan kompetensiyalar ni shakllantirishga erishiladi.

Texnologiya va dizayn. Bu yo'nalish bo'yicha tashkil qilingan ta'lim jarayonida o'quvchilar turli materiallar (yog'och, metall, plastmassa va boshqalar)ning xususiyatlari to'g'risida boshlang'ich bilimlarga ega bo'ladilar: ularni rejalash, arralash, teshish, yo'nish, pardoqlash ishlari va ularda ishlatiladigan asboblarning tuzilishi, ishlashi, dastgohlar, elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar, mashinashunoslik elementlari, yangi texnika va ilg'or texnologiya asoslari, elektronika, avtomatlashtirish, texnologik xaritalar, ularni tuzish, elektrotexnika ishlari, uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash, mehnat qonunchiligi va xavfsizlik texnikasi qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari to'g'risida nazariy bilimlarga ega bo'ladilar. Metall va metallmas buyumlar bilash ishlashni o'rganish jarayonida o'quvchilar turli asboblardan ishlatish, amaliy ko'nikmalarni, texnologik xaritalar bilan ishlatish, ro'zg'or buyumlarini ishlab chiqarishni o'rganish bo'yicha asosiy tushuncha, texnikaviy andozalar (shablonlar) hamda boshqa turdagi ko'nikma va malakalarni egallaydilar.

Texnologiya fanining yangi avlod majmuasini yaratilishi o'quvchilarning mustaqil bilim olishi hamda o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatishga mo'ljallangan.

Bugungi ta'lim tizimi eski mazmundagi o'quv dasturlaridan voz kechib, innovatsion raqamli iqtisodiyot va axborotli jamiyat uchun kadrlar tayyorlash imkonini beradigan o'qitish tizimiga o'tmoqda. Shunga mos ravishda ta'lim berishda yondashuvlar ham o'zgarib, hayotimizga kirib kelayotgan zamonaviy texnika va texnologiyalar, internet va axborot texnologiyalari imkoniyati bilan o'qituvchilar oddiy bilim beruvchidan, o'qituvchi tashkilotchi va rahbar o'qituvchiga aylanmoqdalar.

Ayrim o'qituvchilar uchun bunday o'zgarish oson bo'lmaydi. Bunday davrda raqobatbardoshlik, hamkorlik munosabatlarni o'rnatish olish qobiliyati zarur bo'lganligi sababli, o'quv dasturlari mazmuni tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, ijodiy yaratuvchanlik va hamkorlik ko'nikmalarini, ya'ni kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi loyihasi. Toshkent: RTM, 2020.-60 b.
2. Tohirov O'.O. va boshq. Texnologiya: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. - T.: "Sharq", 2020.-240 b.
3. Tohirov O'.O. va boshq. Texnologiya: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinf darsligi bo'yicha metodik qo'llanma. - T.: "Sharq", 2020.-176 b.